

"YULDUZLAR MANGU YONADI" ASARIDA MILLIY RUH VA IMSONIY QADRIYATLAR AKS-SADOSI

Barotova Maftuna¹

Karimov Ulug'bek²

O'zbekiston Davlat Jahon tillar Universiteti

KEYWORDS

Tog'ay Murodning bolaligi, asar qahramonlari, urf-odatlar, azaliy qadriyatlar, milliy o'yinlar.

ABSTRACT

Kunlarning birida Surxondaryoning Denov tumani Xo'jasoat qishlog'ida bugungi kunning istidodli va o'ziga xos deb tan olingen qalamkash shoiri Tog'ay Murod dunyoga keldi. Uning juda ko'p asarlari yosh va qari kitobxonlar tomonidan birdek qabul qilindi. Shu bilan birha uning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi ham juda mashxur. Asar 1976-yil dunyo yuzini ko'rdi. Bu adibni mashhur qilgan ilk asarlardan biri edi. Asarda kurash, kurashchi polvonlar, ular o'rtaqidagi munosabatlar xalqimizning azaliy urf odatlari to'yashamlari aks ettirilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15367593](https://doi.org/10.5281/zenodo.15367593)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oddiygina qishloqning zahmatkash, tinib-tinchimas oilalarining birida chaqaloq dunyoga keldi. Bu bizning mashhur yozuvchimiz Tog'ay Murod edi. U shaharlik bolalar kabi soat tushgacha dong qotib uxlamagan, ota-onasining yakka-yu yagonasi bulmagan, alohida ustozlar qo'lida tahsil olmagan, aksincha, tong qorong'usida qo'ylarni qirga olib boradigan, onasi sigir sog'sa, buzoqni ushlab turadi, kun bo'yи mol-holga o't-o'lan tashiydi, qishga xashak yig'adigan oddiy bir bola edi. Qishloqning sokin ovozi, bog'u rog'lari va go'zallikka burkangan dala-dashtlari insonni ilhom parilari bilan chulg'ab oladi. Tog'ay Murodni ana shu go'zallik va hayot qiyinchiliklari yetuk adib qilib tarbiyaladi. U otadan erta yetim qoldi. Keyinchalik o'gay otaning qo'lida tarbiya topdi. Mana shu bolalik chog'larida uni qalbida yozuvchilikga bo'lgan mehrni kurtaklatgan yana bir inson maktab kutibxonachisi Xadicha opa edi.

"Maktabimizda katta kutibxona bo'lardi,- deydi bu haqida Tog'ay Murod.- Xadicha opa degan bir tatar ayol kutibxonachi edi. Xadicha opa Qozon shahridan kelib qolgan edi. Ana shu opa bolalarni kutibxonaga a'zo qilolmay sarson edi. U bolalarni kutubxonaga olib kelardi. Bolalar olmay qochardi..."

¹ Universiteti Xorijiy til va adabiyot fakulteti Birinchi bosqich 24/14 – guruh talabasi

² O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tilini amaliy fanlar №3 kafedrasini dotsenti v.b. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Uni mashhur qilgan asarlaridan biri “Yulduzlar mangu yonadi” asari edi. Bu asar ilk bor 1976-yilda “sharq yulduzi” jurnalida chop etildi. Asarda qadimiy davr ananalari yaqqol ko’zga tashlanadi. Asar bir nafasda kitobxonlarni o’ziga tortib keta oladi. O’sha paytdagi Surxon to’ylaridan lavha:

“To’yxonada o’ynab yurmish bolalar oldiga chopib keldi. To’ylovchi ayollar sochqilar sochdi: yong'oq, pista, mayiz. Bolalar qo’llarini cho’zib-cho’zib sapchidi. Sochqilarni ilib-ilib oldi. Yerga tushganlarini talashib-tortishib qo’ynlariga solishdi. Ikkita bola yumalab ketgan yong'oqni quvib ketdi. Bolalar to’da-to’da bo’lib yong'oq, oshiq, shumshak, qulqoqcho’zma o’ynadi. Do'l, g’irboydi, chillak, zuvillatar o’ynadi...”

Bu satrlarni o’qib har bir kitobxon o’zining yoshligidagi to’y manzaralarini behos esga oladi. Bu kabi sahnalar nafaqat Surxon to’ylarida, balki har bir viloyatning urf-odatlari orasidan joy egallagan bo’lishi tabiiy holdir. Bu kabi manzaralarni mingta qalamkash bo’lsa ming xil yo’sinda tasvirlaydi. Tog’ay Murodning uslubi esa sodda, baxshiyona, shoirona, xalqona, hech kimnikiga o’xshamas bo’ldi, uni hech kim takrorlay olmadi.

Asar qahramoni Nasim polvon va Bo’ri polvonlar edi. Ular qiyomatli, sirdosh do’st edilar. Asar bosh qahramoni - Bo’ri polvon obrazi orqali haqiyqiy er yigit qanday bo’lishi, ornomus, vijdon mardlik tuyg’ulari ulug’lanadi. Asarda bo’ri polvonning samimiyy muhabbatni, bu muhabbatning o’z do’sti Nasim tomonidan toptalishi ham aks etgan.

Asarda Nasim obrazi orqali sotqinlik, do’stga xiyonat, birovning tuyg’ulari bilan o’ynashish va ustidan kulish, sevgisini toptash kabilar aks etgan.

Yuqoridagilardan tashqari asarda milliy urf-odatlarimiz va hozirgi kunda o’ynalmay ketgan o’yinlarimiz ham yaqqol tasvirlangan. O’zbek mentalititini ko’rsatib beruvchi milliy o’yinlarning ko’pi 2010- yildan keyin deyarli o’ynalmay qolgan va ularning ko’pchiligi mobil aloqa vositalariga ko’chgan desak ham bo’laveradi. Milliy o’yinlar yosh avlodni jamiyatga qo’shishda xizmati juda kattadir. O’yinlar bolaning ham aqlan, ham jismomon yetuk qilib o’sishiga yordam beradi. O’zbek adabiyotining yerik namoyondasi Tog’ay Murod qalamiga mansub ushbu qissa milliy o’yinlarimiz eng ko’b keltirib o’tilgan asarlardan biri desak adashmagan bo’lamiz. Asarning boshlanish qismidan to tugash qismiga qadar o’zbek milliy o’yinlari haqida so’z boradi. Asar to’y voqiyasi bilan boshlanadi va to’y davomida bir qancha o’yinlar o’ynaladi. Misol uchun:

Ko’pkari - (uloq) O’rta Osiyo xalqlarining qadimiy, ommaviy, milliy o’yinlaridan biri hisoblanadi. Asosan g’alaba va hosil bayramlari, to’y va sayillar munosabati bilan o’tkaziladi. Bugungi kunda hukmdor va katta amaldorlardan tashqari o’zziga to’q oilalar tomonidan ham tashkillashtirilmoqda. Bu ko’proq xatna to’ylarida rasm bo’lgan.

Kurash - o’zbek milliy sport turi. Ikki sportchi yakkama-yakka olishuvi. Milliy kurashning xilma-xil ko’rinishlari Gretsya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O’zbekiston, Gruziya, Armaaniston, Ozarbayjon, Qozog’iston va boshqa mamlakatlarda avj olgan. Asar boshdan oyoq kurash sahnalari bilan qamrab olingan desak adashmagan bo’lamiz. Oshiq - asosan, qo’y va boshqa mayda hayvonlarning suyak bo’lagi hisoblanadi. Oshiqlar Markaziy Osiyo, Mo’g’uliston, Buryatiya va boshqa ba’zi davlatlarda to’planadi va o’yin uchun ishlataladi.

G'irboydi - bu o'yinda ikki bola bellashadi. O'rtaga doira chiziladi va doira ichiga o'yinchilardan birining qalpog'i qo'yiladi. Ikkinchi o'yinchi 20 qadam uzoqda turib chillikning enasopi bilan qalpoqni urib doiradan chiqarishi kerak buladi.

Chillik - O'zbek xalq milliy o'yini. O'yin uchun uzunligi taxminan bir metr bo'lagan tayoq va bir qarichlar atrofidagi chillik tayyorlanadi. Ana shu tayoq bilan chillikni uriladi.

Yuqoridagi o'yinlarning barchasi Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidan o'rinni egallagan. Bu o'yinlar o'zbek millatining tarixidan xabar beradi. O'yinning qanchalik qadimiyligiga qarab millatning madaniyati va ma'naviyati haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Ushbu o'yinlarni o'ynash davomida bolada jasurlik, qo'rmaslik, o'z shanini himoya qilish kabi ulug' fazilatlar shakillana boshlaydi. Asar davomida Bo'ri polvon tomonidan aytilgan "avlodlar almashgani sayin... yo pirim-e tuf-tuf-tuf.... avlodlar almashgaani sayin... yurak yo'qolib boryapti !" degan so'zlar juda o'rinali tilga olingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: ushbu mo'jazgina qissada juda katta masalalar ko'tarilgan. Asar milliy urf -odatlarimiz, an'analarimizga hurmat uyg'otadi, do'st tanlashda adashmaslik, inson doimo vijdoniga qalbiga qulq solib yashashi kerakligi chiroqli tarzda ifodalanadi. Asar so'ngida Bo'ri polvon tomonidan aytilgan "yulduzim mangu yonadi" degan satrlar bejiz emas biz ana shunday mart insonlarning avlodlarimiz bu shijoat, bu jasorat, bu mangu yonib turuvchi yulduzni o'chib qolishiga aslo yo'l qo'masligimiz shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Quronov D va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - Toshkent, 2000-2005
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - Toshkent: Navoiy universitisti, 2018.